



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING BUYRUG'I

2025 y. " 18 " iyul

№ 01-10/153

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ularni moliyalashtirish tartibini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 10-iyuldagi 426-son qarori (keyingi o'rinda - qaror) ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-son qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) mablag'lari hisobidan biznes loyihalarni moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

"Yoshlar ventures" venchur jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - venchur jamg'arma) mablag'lari hisobidan yoshlarning istiqbolli startup loyihalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga asosan tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Jamg'arma (Sh.Omonov) va ushbu jamg'arma ta'sischiligidagi venchur jamg'arma (A.Yakubov) o'z faoliyatini amalga oshirishda yuqoridagi nizomlar va tashkilot ustavlariga qat'iy amal qilinishini ta'minlasin.

2. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Jamg'arma (Sh.Omonov)ga:

tadbirkorlarga kredit ajratish maqsadida manfaatdor tijorat banklari bilan Jamg'arma mablag'lari hisobidan resurs ajratish haqidagi bosh kelishuvlarni rasmiylashtirish va qarorda belgilangan tartibda resurs ajratib borish;

olis va chekka hududlardagi mahallalarda yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, shuningdek, bino va inshootlarni qurish, ularni ta'mirlash va jihozlash uchun qarorda belgilangan tartibda qarz ajratish;

Axborot - kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (B.Sindarov) bilan birgalikda Jamg'arma mablag'lari hisobidan 2025-yil yakuniga qadar yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga

qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha elektron platforma ishlab chiqilishini va vazirlik va idoralarning tegishli ma'lumotlar bazalari, shu jumladan, avtomatlashtirilgan skoring tizimi "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Agentlikning so'roviga asosan elektron platformaga belgilangan tartibda integratsiya qilinishini ta'minlash;

b) venchur jamg'arma (A.Yakubov)ga:

Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish bo'limi (M.Amreyeva) bilan birgalikda Raqamli texnologiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassislari bilan ham korlikda ikki hafta muddatda ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlari Jamg'arma tomonidan qisman qoplab beriladigan nufuzli xalqaro inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari ro'yxatini shakllantirib, tasdiqlash uchun imzoga kiritish va kelgusida ushbu ro'yxatni yangilab borish haqida takliflar kiritish;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun o'tkazilgan nufuzli tanlovlarda g'olib (sovrindor) bo'lgan startap loyihalarni qarorda belgilangan tartibda qo'llab-quvvatlash vazifalari yuklansin.

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o'rinbosari F. Ablayarov zimmasiga yuklansin.

**Direktorning
birinchi o'rinbosari**



D.Kattaxanova